

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.07.2024 yildagi 415-son

Кучга кириш санаси

12.07.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son **qarori** ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son **qaroriga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) etib qayta nomlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

oliy ta'lim tashkilotlari rahbar hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarining tashkiliy hamda o'quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish;

oliy ta'lim tashkilotlari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini hamda oliy ta'lim tashkilotlarining rahbar kadrlari zaxirasiga nomzodlarni maqsadli o'qitishni tashkil etish;

ta'lim sifatini zamonaviy talablarga muvofiq ta'minlash uchun oliy ta'lim tashkilotlari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish;

pedagogik ta'limning dolzarb ilmiy muammolari, shu jumladan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, raqamli ta'lim texnologiyalari va ta'lim menejmenti yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, doktorantura ixtisosliklari bo'yicha yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining ta'lim jarayoni sifati hamda natijadorligini tizimli tahlil va monitoring qilishning raqamli axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

oliy ta'lim tashkilotlari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining ehtiyojidan kelib chiqib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv rejasi hamda ta'lim dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilim darajasi va pedagogik faoliyat samaradorligini inobatga olgan holda kasbiy rivojlantirish ta'lim dasturlarini joriy etish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayoni hamda ilmiy faoliyatga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish, ilg'or pedagogik tajriba almashish borasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriga zarur hollarda, Institutning tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni hamda mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

Institut davlat muassasasi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga hisobdor bo'ladi;

Institutga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi;

mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha Institut direktori — oliy ta'lim tashkiloti rektoriga, direktor o'rinbosari — oliy ta'lim tashkiloti prorektoriga, bosh hisobchi, Axborot-resurs markazi boshlig'i va bo'lim boshliqlari — oliy ta'lim tashkiloti fakultet dekaniga, bosh mutaxassis, muhandis-dasturchi — oliy ta'lim tashkiloti katta o'qituvchisiga, yetakchi mutaxassis va uslubchi — oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisiga tenglashtiriladi.

5. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

xo'jalik faoliyatidan hamda shartnoma asosda xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Institutga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda, o'zining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan budjet qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish huquqi berilsin:

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribali professor-o'qituvchilari, sohaning yetakchi mutaxassis va maslahatchilarini jalb etish, ularga mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda ish haqi to'lash;

Institut xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashi bilan bog'liq xarajatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilab qo'yilsinki, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazida oliy ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlari uchun "Filologiya va tillarni o'qitish", "Xorijiy til va adabiyot (tillar bo'yicha)", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslari tashkil etiladi.

8. Mazkur qarorning qabul qilinishi bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2025-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [2-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

bir oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

ikki oy muddatda Institutni zamonaviy talablarga javob beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va boshqa jihozlar bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov zimmasiga yuklansin.


O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 11-iyul,
415-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-
iyuldagi 415-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining

TUZILMASI



Izoh. Xodimlarning umumiy cheklangan soni (professor-o'qituvchilar tarkibi va yordamchi xodimlardan tashqari) — 21 nafar, shu jumladan, boshqaruv xodimlari — 11 nafar.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-
iyuldagi 415-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2012-yil 26-sentabrdagi 278-son qarorida:

a) 2-bandda:

“v” kichik bandning beshinchi xatboshisidagi “kasb-hunar ta'limi”, “ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-matematika bloklari fanlari” so'zlari tegishlicha “professional ta'lim”, “majburiy fanlar bloking barcha yo'nalishlar uchun umumiy bo'lgan fanlari” so'zlari bilan almashtirilsin;

“g” kichik bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari” soʻzlari “majburiy va tanlov bloklarining mutaxassislik fanlari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

- b) **3-bandda:**
toʻrtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;
beshinchi xatboshi toʻrtinchi xatboshi deb hisoblansin;

v) **1-ilovaning** “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlari” boʻlimi 7-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

7.	Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi	Filologiya va tillarni oʻqitish; Xorijiy til va adabiyot (tillar boʻyicha); Tarjima nazariyasi va amaliyoti	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi
----	---	--	--

”

2. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son **qarorida:**

a) 2-bandning **beshinchi xatboshisidagi** “markazlarida” soʻzi “ta'lim muassasalarida” soʻzlari bilan almashtirilsin;

- b) **1-ilovada:**
9 va 10-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish;

iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash;

ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish;

ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;

ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish;

ilmiy loyihalarda ishtirok etish;

xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish;

ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish;

monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish;

o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashr qilish;

fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish;

xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish yoki stajirovka o'tash.

Ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'limning interaktiv metodlarini qo'llagan holda, akademik guruhlarda jadval bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish va belgilangan tartibda keng muhokama qilish.

Iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash — dars berayotgan fanlari bo'yicha talabalarining respublika va xalqaro miqyosidagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari, san'at sohasidagi ko'rik tanlovlar hamda ko'rgazmalarning sovrindorlarini tayyorlash hamda iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlashda faollik ko'rsatish.

Ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish — fan va amaliyot, o'qitish metodikasi hamda texnologiyasining dolzarb muammolarini hal etishga va o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan dolzarb mavzulari, innovatsion yo'nalishlari bo'yicha respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar, davra suhbatlari, seminarlarda ilmiy yoki ilmiy-metodik ma'ruzalar (axborotlar) qilish.

Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish — mustaqil ravishda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan (mutaxassisligi doirasida) muhim mavzular bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot (empirik) natijalari, tahlillari, ratsionalizatorlik g'oyalari va ishlanmalarini dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar, shu jumladan, elektron ilmiy-texnik jurnallarda e'lon qilish.

Ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish — mashg'ulot olib borayotgan fanlari bo'yicha ijodiy ish natijalarini respublika hamda xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlar va ko'rgazmalarda ishtirok etish orqali ommalashtirish, sovrindor bo'lish.

Ilmiy loyihalarda ishtirok etish — xalqaro loyihalar va dasturlar, shuningdek, fan hamda texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi bilan kadrlar tayyorlash ta'lim mazmuni, sifatini oshirish orasidagi uzviylikni rivojlantirish maqsadida fundamental, innovatsion va amaliy loyihalarga, xo'jalik shartnomalari asosida bajariladigan ishlarga, shuningdek, xalqaro miqyosdagi loyihalarga rahbarlik qilish yoki ishtirokchi sifatida faoliyat yuritish.

Xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish — mustaqil ravishda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan muhim mavzular bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari, tahlillari, ratsionalizatorlik va innovatsion g'oyalarini xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli yoki impakt-faktorli ilmiy jurnallarda e'lon qilish.

Ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish — sohaning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan tadqiqot natijalari asosida mahsulot va ishlanmalarni yaratish.

Monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish — aynan ilmiy-tadqiqot mavzusi natijalari yoki mualliflik ijodiy ishlari asosida tayyorlangan asar (katalog)ni nashr etish.

O'quv adabiyotlarini tayyorlash — davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablar asosida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tajribalar asosida yangi avlod o'quv (elektron) adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanmasi, metodik qo'llanma)ni yaratish va belgilangan tartibda ta'lim amaliyotiga joriy etish.

Ilmiy rahbarligida fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilinganligi — ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashdagi faolligi, rahbarligida fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun tayyorlangan va himoya qilingan dissertatsiya.

Xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish — ishdan ajralgan holda, to'g'ridan-to'g'ri shaklda xorijiy mamlakatlarda kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-metodik darajada amalga oshirish, axborot texnologiyalari va o'qitishning interaktiv metodlari bo'yicha kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni oshirish.

Xorijiy mamlakatlarda stajirovka o'tash — malaka oshirish shakllaridan biri bo'lib, ishdan ajralgan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy mamlakatlarda ish tajribasi, amaliy ko'nikmalari va kasbiy bilim darajasiga ega bo'lish maqsadida ma'lum vaqt davomida bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish.

10. Muqobil malaka oshirish shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lish;

so'nggi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda umumiy davomiyligi 4 hafta yoki 144 soatdan kam bo'lmagan malaka oshirish yoki stajirovka o'tash;

so'nggi 3 yilda falsafa doktori (PhD) yoki mutaxassislik bo'yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish.”;

14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Muqobil malaka oshirish shakllaridan ixtiyoriy birini amalga oshirgan rahbar va pedagog kadrlarga to'g'ridan-to'g'ri malaka attestati Attestatsiya komissiyasining qarori asosida taqdim etiladi.”;

16-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi” so'zlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

17-banddagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

24-banddagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazining (keyingi oʻrinlarda Bosh ilmiy-metodik markaz deb ataladi)” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining (keyingi oʻrinlarda — Institut)” soʻzlari bilan almashtirilsin;

25-bandda:

birinchi va ikkinchi xatboshilardagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Bosh ilmiy-metodik markaz” soʻzlari “Institut” soʻzi bilan almashtirilsin;

27-bandning uchinchi xatboshisidagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligiga” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga” soʻzlari bilan almashtirilsin;

28-banddagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

35-bandning toʻrtinchi va beshinchi xatboshilaridagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

37-bandning beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Masofadan oʻqitish usullari asosidagi kurslarda tinglovchilarning oʻzlashtirish koʻrsatkichlari onlayn shaklda qayd etib boriladi va kurslarni toʻliq oʻzlashtirgan tinglovchilarga bevosita qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida oʻtkaziladigan onlayn test sinovlari hamda bitiruv (loyiha) ishi himoyasida onlayn ishtirok etishga ruxsat beriladi”;

38-bandning birinchi xatboshisidagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligiga” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga” soʻzlari bilan almashtirilsin;

39-banddagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda Bosh ilmiy-metodik markazda” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda Institutda” soʻzlari bilan almashtirilsin;

48-bandning birinchi xatboshisidagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

49-bandda:

birinchi xatboshidagi “Bosh ilmiy-metodik markaz” soʻzlari “Institut” soʻzi bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshidagi “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligining” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining” soʻzlari bilan almashtirilsin;

50-bandning toʻqqizinchi xatboshisidagi “Bosh ilmiy-metodik markaz” soʻzlari “Institut” soʻzi bilan almashtirilsin;

51-bandning ikkinchi va toʻqqizinchi xatboshilaridagi “Bosh ilmiy-metodik markazning” soʻzlari “Institutning” soʻzi bilan almashtirilsin;

1-ilovaga 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish tizimi

SXEMASI

П. Мўқобил малака ошириш																Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий академияси академиги илмий ўнвонига эга бўлиш	Малака аттестати			
																Фалсафа доктори (PhD) ёки фан доктори (DSc) диссертациясини ҳимоя қилиш				
																Хорижий мамлакатларда малака ошириш, стажировка ўташ				
I. Мутахассислик бўйича мустақил малака ошириш																Хорижий мамлакатларда қисқа муддатли малака ошириш, стажировка ўташ	10	Эл ек тр он по рт фо ли о ти зи ми қў рс ат ки чл ар н	86- 10 0 ба лл 20- 85 ба лл	Битирув (лойиҳа) иши ҳимояси (аттестация) Онлайн тест синовлари Таълим дастурлари асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим ташкилотларида бевосита ўқиш
																Илмий раҳбарлигида (DSc, PhD) диссертация ҳимояси	10			
																Ўқув адабиётларини тайёрлаш	10			
																Монография, ижодий ишлар каталогини тайёрлаш	10			
																Халқаро (импакт-факторли) нашрларда мақолалар эълон қилиш	10			
																Ихтиро, рационализаторлик тақлифлари, инновацион ишланмалари муаллифи	10			
																Илмий лойиҳаларда иштирок этиш	10			
																Кўргазма ва танловларда иштирок этиш	8			
																Илмий журналларда мақолалар чоп этиш	8			
																Илмий конференцияларда маъруза билан қатнашиш	6			
																Иқтидорли талабалар билан ишлаш	4			
																Очиқ ўқув машғулот ва маҳорат дарси ташкил этиш	4			
	Узлуksиз малака ошириш шакллари																Балл	Тўплаган баллига мос фаолият йўналиши		

1-ilovaga 2-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish shakllarini
BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Mustaqil malaka oshirish shakllari	Faoliyatni baholash mezonlari	Ball
I. Mutaxassislik boʻyicha mustaqil malaka oshirish			100
1.	Ochiq oʻquv mashgʻulotlari va mahorat darslarini tashkil etish.	Har oʻquv yilida kamida 2 ta sohaga oid “mahorat saboqlari” tashkil etish — Har oʻquv yilida kamida 2 ta ochiq oʻquv mashgʻulotlari —	4 2 1
2.	Iqtidorli va isteʼdodli talabalar bilan ishlash.	Talabalarining respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari, sanʼat sohasidagi koʻrik tanlovlar va koʻrgazmalardagi sovrinli oʻrin uchun: xalqaro miqyosda — republika miqyosida —	4 4 2
3.	Ilmiy konferensiyalarda maʼruza bilan qatnashish.	Xalqaro miqyosda — Respublika miqyosida —	6 2 1
4.	Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish.	Har bir ilmiy maqola uchun —	8 2
5.	Koʻrgazma va tanlovlarda ishtirok etish.	Xalqaro miqyosda — Respublika miqyosida —	8 8 4

6.	Ilmiy loyihalarda ishtirok etish.	Xalqaro loyihalar — 8 Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi loyihalar: loyiha rahbari sifatida — 8 loyiha ishtirokchisi sifatida — 4 Xo’jalik shartnomasi asosida bajariladigan ishlar: rahbar sifatida — 4 ishtirokchi sifatida — 2 Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ijodiy ishlar: yakka muallif sifatida — 4 hammuallif sifatida — 2	10
7.	Xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e’lon qilish.	Xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli ilmiy jurnallar yoki “impakt-faktor”ga ega bo’lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan har bir maqola uchun —	10 5
8.	Ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish.	Ixtiro (patent) — 10 Ratsionalizatorlik taklifi — 6 Innovatsion ishlanmalarga mualliflik — 4	10
9.	Monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish.	Yakka mualliflikda — 10 Hammualliflikda — 5	10
10.	O’quv adabiyotlari (darslik, o’quv qo’llanma, metodik qo’llanma) tayyorlash va nashr qilish.	Yakka mualliflikda: darslik — 10 o’quv qo’llanmasi — 7 Hammualliflikda: darslik — 7 o’quv qo’llanmasi — 5 Metodik qo’llanma: yakka mualliflikda — 3 hammualliflikda — 1	10
11.	Fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.	Oxirgi 3 yilda himoya qilingan dissertatsiyaga —	10

12.	Oxirgi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda malaka oshirish, stajirovka o'tash	Oxirgi 3 yilda ikki haftadan — to'rt haftagacha — Oxirgi 3 yilda ikki haftagacha —	10 10 5
II. Muqobil malaka oshirish shakllari			
13.	O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lish.		
14.	Oxirgi 3 yilda doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiyasini himoya qilish.		
15.	Oxirgi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda umumiy davomiyligi 4 hafta yoki 144 soatdan kam bo'lmagan malaka oshirish yoki stajirovka o'tash.		

v) 4-ilovada:

nomidagi “markazlarida” soʻzi “ta'lim muassasalarida” soʻzlari bilan almashtirilsin;

1-banddagi “markazlarida” soʻzi “ta'lim muassasalarida” soʻzlari bilan almashtirilsin;

2-bobning nomidagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

2-bandning birinchi xatboshisidagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

3-bandda:

birinchi xatboshidagi “Markaz”, “Bosh ilmiy-metodik markaz” soʻzlari tegishlicha “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi”, “Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” soʻzlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Bosh ilmiy-metodik markaz” soʻzlari “Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” soʻzlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

4-bandning birinchi xatboshisidagi va 5-banddagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

6-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

9 va 10-bandlardagi “Markaz” soʻzi “Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

4-ilovaga ilovaning nomidagi “markazlarida” soʻzi “ta'lim muassasalarida” soʻzlari bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining ““Ilhom” mukofotini ta'sis etish to'g'risida” 2020-yil 24-avgustdagi 503-son qarori 4-bandning “g” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“g) tanlov g'oliblari quyidagicha taqdirlanadi:

1-oʻrin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 100 (yuz) baravari miqdoridagi pul mukofoti, maxsus diplom va statuetka;

2-oʻrin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 80 (sakson) baravari miqdoridagi pul mukofoti, maxsus diplom va statuetka;

3-oʻrin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 40 (qirq) baravari miqdoridagi pul mukofoti, maxsus diplom va statuetka”.

4. Vazirlar Mahkamasining “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 2022-yil 1-iyundagi 296-son qarorida:

a) 4-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“akademik litseylar rahbar xodimlarining malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida (keyingi o‘rinlarda — Institut) tashkil etiladi”;

to‘rtinchi va **oltinchi xatboshilardagi** “Bosh ilmiy-metodik markaz” so‘zlari “Institut” so‘zi bilan almashtirilsin;

b) **ilovada:**

6-bandda:

birinchi xatboshidagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Bosh ilmiy-metodik markaz” so‘zlari “Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” so‘zlari bilan almashtirilsin;

9-bandning **ikkinchi** va **oltinchi xatboshilaridagi** “Bosh ilmiy-metodik markazning” so‘zlari “Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

13-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Markazlarda” so‘zi “Institut va markazlarda” so‘zlari bilan almashtirilsin;

24-banddagi “Markazlar” va “Markazlarda” so‘zlari tegishlicha “Institut va markazlar” va “Institut va markazlarda” so‘zlari bilan almashtirilsin;

26-banddagi “Bosh ilmiy-metodik markazning” so‘zlari “Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

28-banddagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

31-bandning **to‘rtinchi xatboshisidagi** “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishgan holda Markaz” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda Institut (markaz)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

32-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“32. Ishdan ajralgan holda malaka oshirish davrida uzrli sabablarsiz o‘quv mashg‘ulotlariga 6 soat va undan ko‘p vaqt qatnashmagan tinglovchilar Institut (markaz) rahbarining buyrug‘i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi va bu haqidagi axborot Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga, shuningdek, tinglovchining asosiy ish joyiga yuboriladi”;

1-ilovaning 2, 3 va 5-pozitsiyalari “Ijrochilar” ustunidagi “Bosh ilmiy-metodik markaz” so‘zlari “Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti faoliyatini tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 17-dekabrdagi 1007-son **qarorida:**

a) **nomi** va **muqaddimasidagi** “Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti” so‘zlari “Toshkent Kimyo xalqaro universiteti” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **1-bandda:**

“a” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

““Global education school” nodavlat ta’lim muassasasi hamda “YUKET LLC” mas’uliyati cheklangan jamiyati (Koreya Respublikasi) (keyingi o‘rinlarda — Muassis) hamkorligida tashkil etilgan “Toshkent Kimyo xalqaro universiteti” mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo‘shma korxona (keyingi o‘rinlarda — Universitet) o‘z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 27-martdagi 241-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat

qilish davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan litsenziya asosida 2018-yilning sentabr oyidan boshlaganligi”;

“b” kichik bandda:

birinchi xatboshidagi “Institutning” so’zi “Universitetning” so’zi bilan almashtirilsin;

ikkinchi, uchinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilardagi “turizm va biznes” so’zlari “turizm, biznes, tibbiyot, mexatronika va robototexnika” so’zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Belgilansinki:

Universitet mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi;

Universitet rektori Muassis tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda, lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

Universitetning tuzilmasi Muassis tomonidan tasdiqlanadi;

Universitet ta’lim faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to’g’risidagi qonunchilik hujjatlari hamda Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq Universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlangan o’quv rejalari va dasturlari asosida o‘zbek, rus va ingliz tillarida amalga oshiradi;

Universitet bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to’g’risidagi hujjat sifatida e’tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom beriladi;

Universitetga talabalar umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotga ega abituriyentlar o’rtasida kirish imtihonlarini o’tkazish orqali qabul qilinadi;

abituriyentlarni qabul qilish parametrlari va tartibi, bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi tartibi va shartlari Universitet tomonidan Muassis bilan kelishilgan holda belgilanadi;

Universitetda to’lov-kontrakt asosida kunduzgi, sirtqi va kechki shaklda o’qitiladi, talabalar o’qishi uchun to’lov-kontrakt mablag’lari miqdori Muassis tomonidan belgilanadi.”;

g) 3-banddagi “Institut” so’zi “Universitet” so’zi bilan almashtirilsin;

d) 4-bandda:

birinchi xatboshidagi “Institutning” so’zi “Universitetning” so’zi bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Institut” so’zi “Universitet” so’zi bilan almashtirilsin;

e) 5 — 7-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Universitetda yangi bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari mehnat bozori talablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqib, belgilangan tartibda ochiladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining viza talabnomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o’qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun kirish vizalari konsullik yig’imlari va haqiqiy xarajatlarning o’rnini qoplash hisobidan yig’imlar undirilmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Universitet buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o’qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun ko’p martalik vizalar davlat boji undirilmasdan belgilangan tartibda berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, ularning yashash manzillari bo’yicha vaqtincha ro’yxatdan o’tkazilishi hamda muddati uzaytirilishini ta’minlasin.”.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

soʻmgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

